

---

## **Anthropological research in Central Asia: the experience of Uzbekistan**

**Sulaymanov Amaliddin Nurboyevich**  
[amaliddin19720317@gmail.com](mailto:amaliddin19720317@gmail.com)  
Associate Professor of the Department of  
History,  
Gulistan State University

**Annotation** *This article scientifically analyzes the stages of formation and development of the science of anthropology in Uzbekistan. The study covers the formation of anthropological research in the region since the beginning of the 20th century, the emergence of scientific schools, and the scientific activities of scientists who contributed to the development of the field. In particular, special attention is paid to the anthropological research, expeditions, and work on the study of the anthropological and ethnic history of the peoples of the region conducted by L.V. Oshanin and his students. The stages of development of the science of anthropology in Uzbekistan, areas of scientific research, and their results are also analyzed. The article reveals the scientific significance of the science of anthropology in studying the ethnogenesis, anthropological composition, and historical development of the peoples of the region.*

**Keywords** *Anthropology, anthropological research, craniology, ethnogenesis, scientific expeditions, anthropological schools*

---

## **Markaziy Osiyoda antropologik tadqiqotlar: O'zbekiston tajribasi**

**Sulaymanov Amaliddin Nurboyevich**  
[amaliddin19720317@gmail.com](mailto:amaliddin19720317@gmail.com)  
"Tarix" kafedrası dotsenti,  
Guliston davlat universiteti

**Annotatsiya** *Mazkur maqolada O'zbekistonda antropologiya fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda XX asr boshlaridan boshlab mintaqada antropologik tadqiqotlarning shakllanishi, ilmiy maktablarning paydo bo'lishi hamda soha rivojiga hissa qo'shgan olimlarning ilmiy faoliyati yoritilgan. Ayniqsa, L.V. Oshanin va uning shogirdlari tomonidan olib borilgan antropologik tadqiqotlar, ekspeditsiyalar hamda mintaq xalqlarining antropologik va etnik tarixini o'rganishga oid ishlarga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, O'zbekiston antropologiya fanining rivojlanish bosqichlari, ilmiy tadqiqot yo'nalishlari va ularning natijalari tahlil qilinadi. Maqolada antropologiya fanining mintaq xalqlarining etnogenezi, antropologik tarkibi va tarixiy rivojlanishini o'rganishdagi ilmiy ahamiyati ochib beriladi.*

**Kalit so'zlar** *Antropologiya, antropologik tadqiqotlar, kraniologiya, etnogenez, ilmiy ekspeditsiyalar, antropologik maktablar*

## Антропологические исследования в Центральной Азии: опыт Узбекистана

Сулейманов Амалиддин Нурбоевич  
[amaliddin19720317@gmail.com](mailto:amaliddin19720317@gmail.com)

Доцент кафедры «История»,  
Гулистанский государственный университет

**Аннотация** *В данной статье проводится научный анализ этапов формирования и развития науки антропологии в Узбекистане. Исследование охватывает формирование антропологических исследований в регионе с начала XX века, появление научных школ и научную деятельность ученых, внесших вклад в развитие этой области. Особое внимание уделяется антропологическим исследованиям, экспедициям и работам по изучению антропологической и этнографической истории народов региона, проводимым Л.В. Ошаниным и его учениками. Также анализируются этапы развития науки антропологии в Узбекистане, направления научных исследований и их результаты. Статья раскрывает научное значение науки антропологии в изучении этногенеза, антропологического состава и исторического развития народов региона.*

**Ключевые слова** *Антропология, антропологические исследования, краниология, этногенез, научные экспедиции, антропологические школы*

### Kirish

O'zbekiston, qadimgi davrlardan fan va madaniyat rivojlangan mamlakat hisoblanadi. Jumladan astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, tarix, falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik kabi fanlar bilan bir qatorda haykaltaroshlik, tikuvchilik, ganchkorlik, sopol buyumlar, oyna ishlab chiqarish kabi hunarmandchilik tarmoqlari gurkirab rivojlangan. Bugungi kunda O'zbekiston olimlari ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy merosni o'rganishib, o'zlarining yangi kashfiyotlari bilan fanimizni boyitib, jahon faniga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Darhaqiqat, XX-asr nafaqat jahondagi ijtimoiy o'zgarishlar balki, fan, madaniyat va ijtimoiy fikrning turli sohalarida tub o'zgarishlar asri bo'ldi. Antropologiya fani ham bundan istisno emas.

### Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

O'zbekistonda antropologiya fanining shakllanishi va rivojlanishiga oid tadqiqotlar asosan XX asrdan boshlab ilmiy adabiyotlarda

yoritila boshlagan. Bu borada L.V. Oshanin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim o'rin tutadi. Olimning Markaziy Osiyo xalqlarining antropologik tarkibi va etnogeneziga bag'ishlangan ishlari mintaqa antropologiyasining ilmiy asoslarini shakllantirishga xizmat qilgan. Shuningdek, V.V. Bunakning antropometrik tadqiqotlar metodikasiga oid ishlari antropologik o'lchov usullarining takomillashuviga katta ta'sir ko'rsatgan.

Keyingi davrlarda V.Ya. Zezenkova, Q.N. Najimov, T.K. Kiyatkina, T.Q. Xodjayov va boshqa olimlar tomonidan Markaziy Osiyo xalqlarining antropologik xususiyatlari, etnik tarixi hamda paleoantropologik materiallar asosida muhim ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu tadqiqotlar O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo xalqlarining antropologik tarkibi hamda etnogenezini o'rganishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarixiylik, tizimlilik va qiyosiy tahlil tamoyillariga asoslangan ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, O'zbekistonda antropologiya fanining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o'rganishda tarixiy-tahliliy metod qo'llanilib, turli davrlarda olib borilgan antropologik tadqiqotlar hamda ilmiy ekspeditsiyalar natijalari o'rganildi.

Tadqiqot davomida antropologiya, etnografiya va tarix fanlariga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, maqolalar hamda arxiv materiallari manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Shuningdek, turli davrlarda olib borilgan antropometrik va kraniologik tadqiqot natijalari qiyosiy tahlil usuli orqali o'rganilib, ularning ilmiy xulosalari umumlashtirildi. Mazkur metodlar tadqiqot mavzusini kompleks yondashuv asosida yoritish imkonini berdi.

### **Tahlil va Natijalar**

Antropologiya fani O'zbekistonda XX asrning 20-yillaridan shakllana boshlagan bo'lib, insonning kelib chiqishi va rivojlanishini o'rganuvchi biologik fan sifatida vujudga kelgan (Кормилицын, 1964, с. 37-42). Bu jarayonda tibbiyot sohasi vakili Lev Vasilevich Oshanin muhim rol o'ynab, O'zbekistonda birinchi antropologik kabinet va keyinchalik kafedrani tashkil etgan hamda Markaziy Osiyo xalqlari antropologiyasi va etnogenezi bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borgan (Кременцов, 1964, с. 12-18).

Olimning ilmiy faoliyatini uning shogirdlari V.Ya. Zezenkova, Q.N. Najimov, T. Kiyatkina, A. Pulyanos, T.K. Xodjayov, S. Mustafaqulov va boshqa tadqiqotchilar davom ettirgan. Hozirgi kunda O'zbekiston va Markaziy Osiyo xalqlari antropologiyasi hamda etnik tarixiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy adabiyotlar yaratilgan. Mazkur maqolada O'zbekistonda antropologiya fanining rivojlanish bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.

O'zbekistonda antropologiya fanining shakllanishi va rivojlanish tarixini aniq davrlarga

ajratish murakkab bo'lsa-da, sohada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili uning rivojlanish bosqichlari va xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. XX asrning 20-yillarida to'plangan ma'lumotlar hamda antropologlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar ko'lamini hisobga olib, antropologiya fanining rivojlanishini shartli ravishda oltita davrga ajratish mumkin.

Birinchi davr (1920–1925-yillar). Bu davr O'zbekistonda antropologiya fanining shakllanish bosqichi bo'lib, uning ilk ilmiy asoslari yaratilgan. Antropologiya fanining asoschisi L.V. Oshanin mintaqada tibbiy hamda antropologik tadqiqotlar olib borib, etnik antropologiya, inson morfologiyasi va antropogenez masalalarini o'rganishga kirishadi hamda mintaqa xalqlarining antropologiyasi va etnik tarixiga oid dastlabki materiallarni to'playdi. Bu jarayonda V.V. Bartold, V.V. Bunak, V.I. Romanovskiy va N.G. Mallitskiy kabi olimlarning ilmiy ishlari va maslahatlari muhim ahamiyat kasb etadi (Бартольд, 1965, с. 117-125; Бунак, 1925/1931; Дубов, 2001, с. 118-131). Shuningdek, V.V. Bunakning antropometrik tadqiqot metodikasiga oid ishlari antropologik tadqiqotlarning ilmiy asoslarini mustahkamladi (Дубов, 2001, с. 131). Antropologik ma'lumotlarni tahlil qilishda matematik-statistik usullarni qo'llashda V.I. Romanovskiy bilan hamkorlik ham muhim rol o'ynadi (Романовский, 1939; Маллицкий, 1924). N.G. Mallitskiy tomonidan tashkil etilgan ilmiy ekspeditsiyalar va "Yag'nobliklar" tadqiqoti ham mintaqa antropologiyasini o'rganishga muhim hissa qo'shdi (Маллицкий, 1924, с. 17). 1925-yilda Antropologiya kafedrasining tashkil etilishi esa O'zbekistonda ushbu fan rivojining muhim bosqichi bo'ldi.

Ikkinchi davr (1926–1930-yillar). Bu davrda O'rta Osiyo davlat universitetida talabalarga "Antropologiya", "Antropologiya asoslari" va "Fiziologik antropologiya" fanlari o'qitila boshlaydi hamda ilmiy tadqiqotlar bilan bir qatorda mintaqaning turli hududlariga antropologik ekspeditsiyalar

tashkil etiladi. Natijada turkmanlarning antropologik xususiyatlari, ularning kelib chiqishi, shuningdek Old Osiyodan kirib kelgan aholi guruhlari hamda turkiy-mo'g'ul qabilalarining mintaqa aholisiga ta'siri bo'yicha muhim ilmiy materiallar to'planadi (Ошанин, 1926, с. 132-172; Ошанин, 1953, с. 50-52).

Bu davrda I. Maslova, L. Fokina va V.Ya. Zezenkova tomonidan turkman qabilalarining antropologik tadqiqotlari olib borilib, ularning irqiy jihatdan o'xshashligi hamda kaspiyorti irqi belgilari ustunligi aniqlanadi (Зезенкова, 1953, с. 57-60). Shuningdek, mintaqada yashovchi yahudiylar, arablar, forslar, balujlar va ozarboyjonlarning antropologiyasi ham o'rganilib, ularning etnik tarixi tarixiy va manbashunoslik materiallari asosida tahlil qilinadi.

Uchinchi davr (1931–1950-yillar). Bu davr O'zbekistonda antropologiya fanining rivojida muhim ilmiy va tashkiliy ishlar bilan ajralib turadi. Ayniqsa, antropolog mutaxassislarni tayyorlash jarayoni yo'lga qo'yiladi. L.V. Oshanin tomonidan Kievda o'tkazilgan ilmiy konferensiyada O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining irqiy tasnifi ilk bor taqdim etiladi (Ошанин, 1931, с. 312-314). Olim va uning shogirdlari mintaqa xalqlarining irqiy va morfologik xususiyatlari hamda ularning shakllanish jarayonini keng qamrovda o'rganadilar. Bu davrda O'rta Osiyo davlat universitetida antropologik tadqiqotlar faollashib, arxeologik ekspeditsiyalar natijasida mintaqaning turli hududlaridan muhim antropologik materiallar to'planadi (Зезенкова, 1945, с. 41-42).

Shu bilan birga, talabalar dala tadqiqotlariga jalb qilinib, fan uchun yangi materiallar yig'iladi. Ushbu davrda Amir Temur va Temuriylar antropologiyasini o'rganish, shuningdek G'arbiy Pomir, Surxondaryo, Farg'ona va boshqa hududlar aholisi antropologiyasi bo'yicha muhim ilmiy tadqiqotlar amalga oshiriladi (Наджимов, 1958, с. 27-32; Ошанин, 1937; Зезенкова, 1945).

To'rtinchi davr (1951–1980-yillar). Bu davr O'zbekiston antropologlarining Markaziy Osiyo xalqlari antropologiyasi va etnik tarixi bo'yicha olib borgan tadqiqotlari hamda ekspeditsiyalari natijalarini umumlashtirish bosqichi hisoblanadi. Antropologik ma'lumotlar asosida mintaqa xalqlarining etnogenezi masalalariga bag'ishlangan ilmiy to'plamlar nashr etiladi, jumladan "Антропологический состав населения Средней Азии и этногенез её народов" nomli uch jildlik asar chop etiladi (Ошанин & Зезенкова, 1953, с. 45-46).

Biroq 1963-yilda L.V. Oshanin vafotidan so'ng Antropologiya kafedrasini faoliyati susayib, keyinchalik yopiladi. Shunga qaramay, soha olimlari ilmiy faoliyatlarini boshqa ilmiy muassasalarda davom ettiradilar. V.Ya. Zezenkova, Q.N. Najimov, T.P. Kiyatkina, A.N. Pulyanos, I.S. Guseva va T.Q. Xodjayov kabi olimlar tomonidan mintaqa xalqlarining antropologiyasi va etnik tarixi bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borilib, fan rivojiga salmoqli hissa qo'shiladi.

Beshinchi davr (1980–2000-yillar). Bu davr O'zbekistonda antropologiya fanining nisbatan rivojlangan bosqichi bo'lib, sohada yangi ilmiy tadqiqotlar va ekspeditsiyalar amalga oshiriladi. Ayniqsa, T.Q. Xodjayov rahbarligida Markaziy Osiyo xalqlarining antropologiyasi va etnik tarixiga oid fundamental tadqiqotlar olib borilib, muhim ilmiy natijalarga erishiladi.

Bu davrda antropolog olimlarning yangi avlodi shakllanib, T.K. Xodjayov, S. Mustafaqulov, X. Xalilov, G.K. Xodjayova kabi tadqiqotchilar mintaqa xalqlarining antropologiyasi bo'yicha izlanishlarni davom ettiradilar. Natijada paleoantropologiya va etnik antropologiyaga oid ko'plab ilmiy asarlar, dissertatsiyalar va maqolalar chop etilib, mintaqa aholisining antropologik tarkibi va etnik tarixiga oid yangi ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritiladi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida antropologiya yo'nalishidagi fanlar o'qitilib, yangi mutaxassis kadrlar tayyorlanadi.

### Xulosa va Takliflar

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda antropologiya fani XX asrning 20-yillaridan boshlab shakllanib, bir necha tarixiy bosqichlar davomida izchil rivojlanib kelgan. Bu jarayonda L.V. Oshanin va uning shogirdlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar, tashkil etilgan ekspeditsiyalar hamda to'plangan antropologik materiallar mintaqa xalqlarining antropologik tarkibi va etnogenezi o'rganishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan. Keyingi davrlarda olib borilgan paleoantropologik va etnik-antropologik tadqiqotlar esa Markaziy Osiyo xalqlarining kelib chiqishi va tarixiy rivojlanish

jarayonlarini yanada chuqurroq yoritishga imkon yaratdi.

Shu bilan birga, antropologiya sohasida ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish, arxeologiya, etnografiya va genetika kabi fanlar bilan integratsiyani kuchaytirish, mavjud antropologik materiallarni zamonaviy ilmiy metodlar asosida qayta tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, yosh mutaxassislarni tayyorlash, xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish hamda antropologik tadqiqotlar natijalarini ilmiy muomalaga keng jalb etish O'zbekistonda antropologiya fanining kelgusidagi taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi.

### References:

1. Алексеев, В. П., Ходжайов, Т., & Халилов, Х. (1984). *Население верховьев Амударьи по данным палеоантропологии*. Фан.
2. Бартольд, В. В. (1965). *К истории орошения Туркестана*. В Сочинения (Т. 3, с. 117-125).
3. Бунак, В. В. (1925/1931). *Методика антропометрического исследования* (3-е изд.).
4. Гусева, И. С. (1963). *Особенности горизонтальной профилированности лицевого скелета некоторых современных антропологических типов*. Автореферат диссертации кандидата биологических наук.
5. Дубов, А. И. (2001). Профессор В. В. Бунак - выдающийся антрополог XX в. *Этнографическое обозрение*, (5), 118-131.
6. Зезенкова, В. Я. (1945). К вопросу об антропологическом типе туркмен Самаркандской и Бухарской областей. *Бюллетень САГУ*, (4), 18-20.
7. Зезенкова, В. Я. (1953). *Материалы по антропологии женщин различных племен и народов Средней Азии*. В Вопросы этногенеза народов Средней Азии в свете данных антропологии (с. 57-60).
8. Кияткина, Т. П. (1964). Краниологический материал из катакомбных захоронений античного времени в Южной Туркмении. *Научные труды ТашГУ*, 235, 110-115.
9. Кияткина, Т. П. (1976). *Материалы к палеоантропологии Таджикистана*. Дониш.
10. Кормилицын, А. И. (1964). Экспедиции кафедры антропологии биолого-почвенного факультета ТашГУ за 1923-1959 гг. *Труды ТашГУ*, 261, 37-42.
11. Кременцов, Н. П. (1964). Краткая биография Л. В. Ошанина. *Научные труды ТашГУ*, 235, 12-18.
12. Маллицкий, Н. Г. (1924). Ягнобцы. *Известия Туркестанского отдела Русского географического общества*, 17.
13. Наджимов, К. (1958). Антропологический состав населения Сурхандарьинской области. *Труды ТашГУ*, 143, 27-32.
14. Ошанин, Л. В. (1926). Тысячелетняя давность долихоцефалии у туркмен и возможные пути ее происхождения. *Известия Средазкомстариса*, 1, 132-172.

15. Ошанин, Л. В. (1929). К сравнительной антропологии этнических групп, пришлых из Передней Азии - евреев и арабов, и этнических групп Узбекистана - узбеков и таджиков. *Материалы по антропологии населения Узбекистана, 1*, 4-28.
16. Ошанин, Л. В. (1931). Данные к географическому распространению главнейших антропологических признаков населения Средней Азии и опыт выявления основных расовых типов Средней Азии. *Труды IV Всесоюзного съезда зоологов, анатомов и гистологов* (с. 312-314).
17. Ошанин, Л. В. (1937). *Иранские племена Западного Памира*.
18. Ошанин, Л. В. (1945). *Большая монголоидная раса, пути её расселения и степень участия в происхождении турецких народов Средней Азии и Ближнего Востока*. В Тезисы конференции, посвященной 25-летию САГУ (с. 36-42). Изд-во САГУ.
19. Ошанин, Л. В. (1953). *Данные по антропологии групп, переселившихся из Передней Азии. Среднеазиатские евреи и арабы* (с. 50-52).
20. Ошанин, Л. В. (1964). Антропологическое исследование скелетов Тимура и Тимуридов. *Археология и антропология. Труды ТашГУ, 232*, 50-51.
21. Ошанин, Л. В., & Зезенкова, В. Я. (1953). *Антропологический состав населения Средней Азии и этногенез ее народов в свете данных антропологии*. В Вопросы этногенеза народов Средней Азии (с. 45-46).
22. Пулянос, А. Н. (1961). Обнаружение палеолитического человеческого черепа в Греции. *Вопросы антропологии, (8)*, 162.
23. Романовский, В. И. (1939). *Элементарный курс математической статистики*. Госпланиздат.